

TRADITIONAL FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEK CLASSICAL MUSIC

Xudaybergenova Malika

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

2nd year master's degree in music education and art

Annotation: The role of teacher-student traditions in the formation of Uzbek classical music is great, and our main task is to awaken and express love for the motherland on the basis of love and interest in our national values and traditional music.

Keywords: Uzbek classical music, national idea - traditions, formation of Uzbek classical traditional music, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov

O'zbek mumtoz musiqasining an'anaviy shakllanish va rivojlanishi

Xudaybergenova Malika

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

“Musiqqa ta’limi va san’at” yo’nalishi 2 –kurs magistranti

Annotatsiya: O'zbek mumtoz musiqasi shakllanishida ustoz – shogird an'analari roli katta bo'lib, milliy qadriyatlarimizga va an'anaviy musiqaga bo'lgan mehr va qiziqishlar zahirida vatanga muhabbatni uyg'otish va yuzaga chiqarish asosiy burchimizdir.

Kalit so'zlar: O'zbek mumtoz musiqasi, milliy g'oya – an'analari, o'zbek mumtoz an'anaviy musiqasi shakllanishi, Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov

Ustoz – otadek ulug' va qadrlil. Bir yosh niholga ota – onasichalik kuyunguvchi, murg'ak qalbni kelajak sari ildam qadam tashlashida, uning ko'nglida umid uchqunlari o'sishida beminnat xizmat qilguvchi shaxs.

Qachon inson kimnidur ustoz deb ataydi, ishonadi, ergashadi, taqlid qiladi, ustozidek bo'lishga harakat qiladi, qachonki o'sha inson shogird ko'ngil ko'zini ocha olsa, unga ta'lim – tarbiya, ilm qadri va qimmat, hayotdagi vazifasi va o'rnini anglata olsa, menimcha. Hozir davr o'zgarmoqda ustoz va shogird, domla va talaba o'rtasidagi munosabatlar ham zamon zayli bilan bog'liq holda o'zgarmoqda. Lekin bunday qarashlar qaysi ma'noda to'g'ri? Hozir ustoz yuziga sapchishdan tab tortmaydigan biz “zamonaviy yoshlar” kelajakda o'zimiz kimlarga ta'lim berishimiz haqida o'ylayapmizmi? Yoki fikr erkinligi, globallashtirish jarayonida dunyoni har xil rangda ko'rayotgan biz yoshlarga endilikda o'tgan asr kishilarining fikri qolqoqday, sarqitday tuyulayaptimi? O'zimiz ham 30 yildan keyin o'tgan asr kishilariga aylanmaymizmi? Nahot 50 yil muqaddam inqiloblar davrida unib chiqqan, kurtak ochib dunyoni o'zgartirgan shaxslar ham kimnidur ustozim deb ergashgan bo'lsalar – u, biz shart – sharoitlar muhayyo davrda kimnidur ustoz deb atamasak, xohlamasak, bo'ysunmasak yoxud tan ololmasak. Fikrlar qarama – qarshiliklariga nimalar sabab bo'lmoqda? Ilmsizlikmi yoki zamonaviylikmi?! Menimcha, sabab hamma to'g'ri ish qilyapman deb o'ylashida. Ustoz va shogird bir – birini dildan tushunishi, hurmat qilishi kerak. Ustoz ilm bobida yo'l ko'rsatuvchi mayoq, shogird bo'lsa ustozga dastak bo'lishi zarur.

Insonning umri davomida qilgan ishlari, yaxshiliklari, o'zidan keyin ham necha yillar eslanadi. Haqiqiy ilm ahli, haqiqiy o'z kasbini sevuvchilarning ijodiy ishlari, qoldirgan esdaliklari yana ming yillargacha xotiralarda saqlanadi, avlodlar ularni o'qib o'rganadi. Biz ham shunday ustozlarimizdan biri bo'lmish Madrahim Sheroziy haqida to'plaganlarimizni yozishga harakat qildik. Bu insonga ixlosimiz baland, haqiqiy musiqqa shaydosi, shogirlarga mehribon, o'quvchilarining o'z o'rnini topishida beminnat dastyor bo'lganlar. Xorazm san'ati, Xorazm suvorolari, ashula va kuy – qo'shiqlari deyilganda ko'pchilik ko'z o'ngida Komiljon Otaniyozov, Hojixon Boltayev, Otajon Xudoysheurov, Ortiq Otajonov va boshqa siymolar gavlaladi. Lekin shu insonlar tan olgan ustozlar borki, ular haqida biz kam ma'lumotlarga egamiz.

“Madrahim Sheroziy (1890 – 1973) zamonasining zabardast san'atkorlaridan edi. U dutor, ruboblarni zo'r chalishi bilan birga, o'z ovozigacha garmon ohanglarini mohirona uyg'unlashtirish yo'llarini topdi. Ma'lumki, garmonni 1822 – yilda nemis ustasi K. F. Bushman yasagan. Bu asbob o'sha asrning so'nggi choragida Rossiya orqali Turkistonga, jumladan, Xorazmga kirib kelgan va “soz” deb atala boshlagan.

Farg'onada Orif Garmon (Toshmatov) garmon chalib, shuhrat qozongan. Xorazmda bo'lsa, Sheroziy. Sheroziydan oldingi sozndalar, xalfalar ham garmon chalganlar. Ammo ayni Sheroziy garmon ijrosini yuqori bosqichga olib chiqdi. Uning ijrosida garmon goh sho'xchan, goh shikasta sadolar berdi va bu tinglovchilarga manzur bo'ldi. Sheroziy boshlab bergan an'ana keyinchalik Xorazm san'atkorlari tomonidan yanada rivojlantirildi, garmon o'rniga uning "bolasi" – akkerderon kirib keldi. Hozirgi vaqtda xorazmlik bironta taniqli san'atkor yo'qki, dastasida akkerdeonchi bo'lmasin."

"Asli ismi –sharifi Madrahim Yoqubov bo'lgan san'atkor garmonda bu ishning uddasidan chiqdi. U Qurji ota Avazmatovdan dutor chalishni, Polli duzchidan suvora yo'llarini, Qurbonniyoz talqinchidan aytim yo'llarini, Qurbon ota Ismoilovdan xalq qo'shiqlarini va garmon chalishni o'rgangan. Madrahim Yoqubov sheroziy teri cho'girma kiyib yurgani uchun xalq orasida "Sheroziy" nomi bilan tanilgan. Sheroziyning nomi 15 -20 yoshlaridayoq xonanda va mug'anniy o'laroq xalq orasida tilga tushgan, keyinchalik konsertlar, to'ylarda xizmat qilib, O'zbekistondagina emas, balki Turkmanistonda ham shuhrat qozongan. "Katta suvora", "Savti suvora", uforlar, maqomlar, "Feruz"larni, xalq qo'shiqlari, termalarni mahorat bilan ijro qilgan. U bastalagan "Gul Vatan", Asrlar orziqib" kabi qo'shiqlar ommalashib ketgan."¹

Ustoz haqida o'qib chiqib, ijod namunalaridan tinglab ko'nglim ajib bir hislarga to'lgandi. Garchi men ustoz deb atagan bu insonni ko'rish nasib qilmagan bo'lsada, u kishining san'atga, muhabbatga, ilm olishga, ezgu amallar qilishga intilishi, shogirtlarini o'z farzandiday ko'rib, yaxshiliklar sari yetaklashi, har bir shaxs o'z kasbiga mehr qo'yishi zarur ekanligini anglatadi.

Ustoz tufayli nafaqat mumtoz musiqalarimiz rivojlangan balki, folklor, xalq musiqa merosi qaytadan ustoz va shogirdlari ijrosida jonlandi. Madrahim Sheroziy adabiyot va san'at namoyondasi, Turkistonda teatrga asos solgan ustozimiz Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan yaqin do'st bo'lishgan. Bilamizki, Hamza Hakimzoda Niyoziy ustozimiz xalqni jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik, ilmsizlik, ma'naviy qashshoqlik, boshqa millatga tobeligiga qarshi kurashga da'vat qilganlar va bu kurashda asosiy g'oyalarni adabiyot va san'at orqali yetkazib berganlar. Oddiy xalqning ongiga tez kirib borishda ular "teatr"ni afzal bilishgan. Sababi teatrdad adabiyot, she'riyat, kuy – qo'shiq, hazil – mutoyiba, musibat va qayg'u hammasi umumlashadi, bu jarayon tomoshabinga kuchli ta'sir qiladi. Hamza Hakimzoda Niyoziy Sheroziy ustoz bilan birgalikda Xorazmda ham teatr truppalarini tashkillashtirishadi. Xorazm teatri – ana shu insonlar mehnati bilan vujudga keladi.

Asli "Ustoz" sharafiga yillab kitobdan bosh ko'tarmay, biror bir ixtirolar qilish bilan erishilmaydi, asli "Ustoz" maqomi shogirtlarning yutuqlari, hayotda erishganlari va anglab yetganlari, insonlarga, Vataniga tekkan foydasida namoyon bo'ladi. Shu bois Madrahim Sheroziy va u inson kabi xalqni ma'rifatli qilishda jonkuydirgan har bir shaxsni biz "Ustoz", "Muallim" deb ataymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboxon Muhammad Sharif. Men ketarman ishqning yo'lina. Komiljon Otaniyozov ruhiyati va muhitning xolu hatti. – Toshkent.: "EXTREMUM – PRESS", 2017y. – 304 b.
2. O'zbek elim Komiljondan ayrilmas: yodnomalar. Toshkent. "Istiqlof nuri", 2014. – 172b.
3. Botir Rahimov "Komiljon Otaniyozov abadiyati"; Komiljon Otaniyozov nomidagi "Musofa va nafis san'atlar" jamoat fondi.
4. T.Ismailov; "CHARACTERISTICS OF KHOREZM DOSTON ART" "Экономика и социум" №3(82) 2021;

¹ Boboxon Muhammad Sharif. Men ketarman ishqning yo'lina. Komiljon Otaniyozov ruhiyati va muhitning xolu hatti. – Toshkent.: "EXTREMUM – PRESS", 2017y. – 304 b.